

## **Nihol (Ertak)**

Bahorda tug‘ilganim uchun bu faslni yaxshi ko‘raman. Chunki bo‘yimga bo‘y, kuchimga kuch qo‘shiladi. O‘tgan bahorda bo‘yim juda kichkina edi, bu yil ancha o‘sib, biroz to‘lishdim. Barglarim ham siyrak edi, zichlashib, ko‘payib qolibdi. Atrofimda mendan boshqa yosh nihol yo‘q, hammasining bo‘yi cho‘zilib, katta daraxt bo‘libdi. O‘n qadamcha narida bir keksa daraxt bor, uni o‘tgan yili ham ko‘rgandim. Avvaliga gapirishga uyaldim, lekin u bilan suhbatlashgim kelaverdi.

— Assalomu alaykum, Daraxt bobo.

Eshitmadi shekilli yoki uxlayotganmikan? Yana salom bergandim, xayriyat eshitdi.

— Vaalaykum assalom. Iya, axir sen kichkina eding-ku, ulg‘ayib qolibsan. Bo‘ying ham ancha cho‘zilibdi. Yoningdagi daraxtlarning barchasi senga o‘xshab ko‘z oldimda katta bo‘lishyapti.

— Daraxt bobo, nega tanangizning yarmi qorayib ketgan?

Daraxt bobo chuqur uh tortib, xo‘rsindi. Shunda bergen savolim unga og‘ir botganini tushundim.

— Bir paytlar men ham gullab-yashnab, savlat to‘kib turardim. Faqat yolg‘iz edim. Keyinchalik atrofimda yosh nihollar unib chiqib, ko‘payib qoldik. Hozir esa keksaydim. Uzoq yillar davomida odamlarni yozda issiqliqdan, qishda yomg‘ir va qordan pana qildim. Qushlar bag‘rimda in qurib, polaponlarini uchirdilar. Yashnab turgan kunlarimning birida momoqaldiroq chaqdi va yashin urib, tanamning yarmini kuydirib yubordi. Sen so‘ragan qora rang mana shuning asorati. Tanamning hunday bo‘lsa-da, kuymay qolgan novda barglarimdan umidim katta. Hali odamlarga issiqliqda, qor, yomg‘irli kunlarda soyabon bo‘lishni, bag‘rimda qushlarni yana sho‘x-shodon sayrashini juda xohlayman.

— Men sizga qoyil qoldim. Dunyoda sizga o‘xshagan Daraxt bobolar yana bormikan?

— Albatta bor-da. Ularning yonida ham sendek qiziquivchan, sersavol nihollar unib o‘syapti.

Shu payt sha-a-rr etib yomg‘ir yog‘ib qoldi. Yomg‘ir tomchilari barglarimni biram qitiqladiki, qiqirlab kulib yubordim.

— Qarang Daraxt bobo, yomg‘ir yog‘yapti, men bunday shiddatli yomg‘irni birinchi ko‘rishim, — dedim quvonchim ichimga sig‘may.

— Bu Ona tabiatning bizga bergen in’omi. Agar yomg‘ir bo‘lmasa umuman yashay olmaymiz. Ilk bor uni ko‘rganimda, men ham senga o‘xshab hayratlanganman. Hali bunday yomg‘irlami juda ko‘p ko‘ra uning tomchilaridan bahramand bo‘lasan.

— Ka-at-ta daraxt bo‘lsam yonimdagি nihollarga Siz haqingizda albatta aytib beraman.

Shunday qilib, keksa Daraxt bobo bilan do‘stlashib oldik. Men har kuni undan bilmaganlarim haqida so‘raydigan, u esa erinmasdan javob beradigan bo‘ldi.

**Shahnoza Karimova  
“Gulxan” jurnalidan 2013-yil 2-soni**